2-SHO‘BA SHO‘RLANISH MONITORINGI

Nukus · 16.10.2026 • UDK 635+631105.14

Ekologik sharoitga mos pomidorning serhosil nav va duragaylarini tanlash

Nuralieva Quralay Daribaevna doktorant · **Madreyimova Dilfuza Yerkabayevna** q.x.f.d. (DSc), dotsent

dilfuza_1979@mail.ru

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610061

Iqtibos uchun: Nuralieva Quralay Daribaevna, Madreyimova Dilfuza Yerkabayevna. Ekologik sharoitga mos pomidorning serhosil nav va duragaylarini tanlash // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 245–247. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610061

Annotatsiya. Maqolada pomidorning ekologik sharoitga mos serhosil nav va duragaylaridan foydalanish, mahsulot yetishtirishda tuproq unumdorligini oshiruvchi texnologiyalarni joriy etish, sho‘rlangan tuproqlar sharoitida pomidor urug‘chiligini tashkil etishda ilmiy va amaliy yutuqlardan foydalanish hosildorlikni oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etishi bayon etilgan. Iqlim o‘zgarishiga moslashish, suv tanqisligi oqibatlarini yumshatish, aholini ekologik xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье изложено, что актуальное значение в повышении продуктивности имеют использование высокоурожайных сортов и гибридов томата, пригодных к экологическим условиям, внедрение технологий, повышающих плодородие почв при производстве продукции, использование научных и практических достижений в организации семеноводства томатов в условиях засоленных почв. Приведены результаты научных исследований, направленных на адаптацию к изменению климата, смягчение последствий дефицита воды, обеспечение населения экологически безопасными продуктами питания.

Abstract. The article highlights the importance of using high-yielding tomato varieties and hybrids adapted to ecological conditions, introducing technologies that increase soil fertility when producing products, and utilizing scientific and practical achievements in organizing tomato seed production in saline soil conditions to increase productivity. The results of scientific research aimed at adapting to climate change, mitigating the consequences of water scarcity, and providing the population with environmentally safe food products are presented.

Kalit so‘zlar: pomidor, kolleksiya, tuproq sho‘rlanishi, hosildorlik, tovarboplik, navlar, duragaylar, biometriya, fenologik kuzatuvlar

Keywords: tomatoes, collection, soil salinity, yield, marketability, varieties, hybrids, biometry, phenological observations.

Ключевые слова: томаты, коллекция, засоление почвы, урожайность, товарность, сорта, гибриды, биометрия, фенологические наблюдения.

Kirish

Qoraqalpog‘iston Respublikasida so‘nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasida aholining sifatli, tannarxi yuqori bo‘lmagan sabzavot mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, kuchsiz va o‘rta sho‘rlangan maydonlarda yetishtirish uchun mos, yuqori hosilli, eksportbop, ichki va tashqi bozorda talab yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi ekinlari, ayniqsa sabzavot turlarini ekish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilgan. Lekin pomidor nav namunalarini yetishtirish bo‘yicha tadqiqotlar kam olib borilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 30-bandida «eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish» ustuvor vazifalardan biri sifatida alohida belgilab

qo‘yilgan. Shu bois, o‘rta sho‘rlangan maydonlarda yetishtirishga mos pomidor nav namunalarini tanlash va yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

So‘nggi yillarda sabzavotchilikda F_1 duragaylarini yaratishda katta yutuqlarga erishildi. Bu sanoatdagi tubdan yangi yo‘nalish va XX asrning biologiya va naslchilikdagi eng ajoyib yutug‘idir [2; 183-187 b].

A.A.Juchenko ta’kidlaganidek, birinchi avlod duragaylariga e’tiborning kuchayishi nafaqat patentsiz tanlovni, balki yangi genetik donorlarning afzalliklarini ro‘yobga chiqarish va ma’lum bir moslashuvchan muhim va iqtisodiy jihatdan qimmatli belgilar uchun geterozisga erishish imkoniyatini ham anglatadi. Shu bilan birga, yagona CMSga asoslangan gibrid urug‘chilikka keng o‘tish bir qator ekinlarning bir xilligi va demak, ekologik zaifligini oshirishga olib keldi. Bundan tashqari, gibrid urug‘chilik katta qo‘shimcha moddiy xarajatlarni talab qiladi [4; 13-18 b; 54; 60-65 b].

Materiallar va metodlar

Geterozisli duragaylar – bu bir-biriga genetik jihatdan o‘xshash bo‘lmagan navlar, liniyalar yoki turlarni chatishtirish orqali olingan va birinchi bo‘g‘inda (F_1) o‘z ota-onasiga nisbatan kuchliroq rivojlanadigan, hosildorligi yuqori va kasalliklarga chidamli bo‘lgan duragaylar hisoblanadi.

«Tanlangan kombinatsiyalar» deganda, seleksiyachilar tomonidan laboratoriya va dala sharoitida yuzlab chatishtirishlar o‘tkazilib, ular orasidan eng yuqori geterozis samarasini bergan (eng yaxshi natija ko‘rsatgan) ota-ona juftliklari tushuniladi.

Natijalar

Pomidor nav namunalarida qimmatli xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan ota-ona juftlarini tanlash seleksiya va urug‘chilik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida amalga oshirildi. Pomidorning nav namunalari kolleksiyasi uchun nazorat varianti sifatida Volgogradskiy 5/95 naviga nisbatan TMK-22, Absolyut, Modera, Maxi Rio, Red Stone, U-king, Kupon, Reo Grande, A-Z-12 (Turkiya), Super grande, Cherry, Reo Grande, Gollandskiy, H 2274 (Turkiya), Arizona, A-Z-44, Wangle, Flamingo, Bobcat, A-Z-05, Buron, Yusupovskiy, Yoxud Uzbek, Maxi Reo, Yulduz Uzbek, Super Strain, Nobichok, Yusup, Lodjeyn Golland, FTL-5, Galilea, Suzana Plus, FTL-23, Forsa, Reo Grande, FTL-12 navlari, Sultan F_1 duragayi nazorat sifatida olinib, Kross F_1, Red Star F_1, Suzana plyus F_1, Bobcat duragaylarini o‘rganish va yetishtirish uchun izlanishlar olib borildi.

Tajriba davomida pomidor o‘simligining o‘rtacha balandligi aniqlanganda Lodjeyn, Cherry, Absolyut, Wangle (82-118 sm) navlari boshqa nazoratga nisbatan baland va o‘sish tezligi yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Volgogradskiy 5/95, Novishok, U-king, Kross F_1, Red star, H 2274 Turkiya va Reo grande nazoratga nisbatan balandligi va o‘sish tezligi o‘rtacha (76,0-79,6) bo‘lganligi belgilab olindi. FTL-23, Modera va FTL-23 navlari nazoratga nisbatan bo‘ylari va o‘sish tezligi past ko‘rsatkichga ega bo‘ldi.

Pomidor o‘simligining o‘sish va rivojlanish davri (vegetatsiya davri) ko‘chatdan ekilganidan to birinchi hosil pishguncha o‘rtacha 55 kundan 75 kungacha davom etadi. Bu muddat pomidorning naviga (ertapishar, o‘rtapishar yoki kechpishar) hamda parvarishlash sharoitiga bog‘liq hisoblanadi.

1-jadval. Tanlangan kombinatsiyalarning geterozisli duragaylari

№	Tanlangan kombinatsiyalar	Changlatilgan kun	Mevasining pishish davri	Kun hisobida
1	Reo grande X Wangle	16.06.2026	30.07.2026	44
2	Wangle X Reo grande	16.06.2026	30.07.2026	44
3	A-Z-12 X A-Z-44	16.06.2026	01.08.2026	45
4	A-Z-44 X A-Z-12	16.06.2026	01.08.2026	45
5	Yoxud O‘zbekiston X Super strain	17.06.2026	07.08.2026	50
6	Super strain X Yoxud O‘zbekiston	17.06.2026	02.08.2026	45
7	Sultan X Maxi Reo F1	18.06.2026	01.08.2026	44

№	Tanlangan kombinatsiyalar	Changlatilgan kun	Mevasining pishish davri	Kun hisobida
8	Maxi Reo F_1 X Sultan	18.06.2026	01.08.2026	44
9	Flamingo X A-Z-05	19.06.2026	03.08.2026	45
10	A-Z-05 X Flamingo	19.06.2026	03.08.2026	45
11	A-Z-05 X Bobcat	19.06.2026	09.08.2026	50
12	Bobcat X A-Z-05	19.06.2026	07.08.2026	48
13	Reo grande X Gollandskiy	22.06.2026	31.07.2026	39
14	Gollandskiy X Reo grande	22.06.2026	31.07.2026	38
15	FTL X Red stone	25.06.2026	11.08.2026	46
16	Red stone X FTL	25.06.2026	11.08.2026	46
17	Galilea X FTL-5	27.06.2026	14.08.2026	47
18	FTL-5 X Galilea	27.06.2026	14.08.2026	47
19	FTL-23 X Suzana	27.06.2026	13.08.2026	46
20	Suzana X FTL-23	27.06.2026	12.08.2026	45
21	Arizona X H2274	30.06.2026	17.08.2026	47
22	H 2274 X Arizona	30.06.2026	15.08.2026	45
23	Volgogradskiy X AZ-44	30.06.2026	14.08.2026	44
24	AZ-44 X Volgogradskiy	04.07.2026	20.08.2026	46
25	FTL-23 X Farsa	03.07.2026	20.08.2026	48
26	Farsa X FTL-23	03.07.2026	20.08.2026	48

Kuzatuvlar davomida pomidor o‘simligining ayrim navlari, masalan, Maxi Rio, Modera, Farsa, Kupon F_1, Kupon F_1, Red star navlari birinchi meva pishish davrlari 40-45 kun davom etganligi, Wangle, Suzana plus, Volgogradskiy 5/95 va Bobcat navlari o‘rtacha 45-55 kun davom etganligi hamda FTL-23, FTL-12, A-Z-44, Galilea, Kross F_1, Buron va Reo grande navlari 60-75 kun davom etganligi aniqlandi.

Pomidor nav namunalarini retsiprok changlatish usuli bilan bir qancha kombinatsiyalar yaratildi. Bularni changlatish davrida pishish davrlari va meva sifatini hisobga olib kombinatsiyalar tanlangan. Olingan duragaylar 38 kundan 50 kun atrofida kun talab etilgan.

Xulosa

Ilmiy tadqiqot davomida pomidor o‘simligining o‘sishi, rivojlanishi, gullashi va pishish davrlari fenologik kuzatildi. Pomidor o‘simligini yetishtirish uchun pomidor nav namunalarini tanlash va tanlangan namunalarni chatishtirish yo‘li bilan ulardan stress omillariga bardoshli geterozisli duragaylar olishdan iborat bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-oktabrdagi PF-5853 sonli «O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. Toshkent, 2019. 33 b.
2. Гринько Н.Н., Стрижак Т.В. Устойчивость гетерозисных гибридов томата к фитопатогенам. //Гетерозис сельскохозяйственных растений: Материалы, доклады, сообщения международного симпозиума, 1-15 декабря 1997 – Москва, РАСХМ, 1997, с.183-187.
3. Жученко А.А. К проблемам научного обеспечения овощеводства. // Картофель и овощи. – Москва, 2002, с.60-65.
4. Жученко А.А. Роль гетерозиса в эволюции и селекции растений. //Гетерозис сельскохозяйственных растений: материалы, доклады, сообщения международного симпозиума – 1-5 декабря 1997, - Москва,